



## SINF SOATLARIDA HUQUQBUZARLIK SODIR ETISHGA MOYILLIGI BO‘LGAN O‘QUVCHILAR BILAN ISHLASH

*Pardayev X.O.*

*T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan o‘quvchilar, tarbiyasi qiyin o‘quvchi, sinf soatlari, maktab psixologi, sinf rahbari, ota-onalar, maxalla, yosh xususiyatlari, bilim darajasi.

**Ключевые слова:** делинквентные ученики, трудный ученик, классное время, школьный психолог, классный руководитель, родители, соседство, возрастные особенности, уровень образования.

**Key words:** delinquent students, difficult student, classroom hours, school psychologist, class leader, parents, neighborhood, age characteristics, educational level.

Ma’lumki, sinf soatlari o‘quvchilar bilan tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishning asosiy shaklidir. Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi asosida sinf soatlarining mazmuni belgilab olinadi. Sinf soatlarida sinf rahbari o‘quvchilar bilan aniq mavzularda muloqotni tashkil qiladi. Sinf soatlarida o‘quvchilar o‘z fikr-muloxazalarini erkin bayon qilishlari uchun qulay sharoit yaratiladi. Sinf soatlarini tashkil etishda pedagoglar o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi, dunyoqarashi, nuqtai nazarlarini aniq hisobga olishlari talab etiladi.

“Sinf soat”larida o‘quvchilarda sog‘lom fikrlash, tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, darslarga jiddiy tayyorlanib kelish, bo‘sh vaqtlarida to‘garaklarga qatnashish va kitobxonlikni targ‘ib qilish tizimi haqida ma’lumot beriladi.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil etishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

biriktirilgan mas’ul xodimlarga, sinf rahbarlari va psixologga tegishli metodik yordam ko‘rsatish;



o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan suhbatlar olib borishda ishtirok etish;

ta‘lim muassasasida tashkil etiladigan turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlarga ichki nazorat ro‘yxatidagi o‘quvchilarning jalb etilishini ta‘minlash;

o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan tajribali pedagog xodimlar, ta‘lim muassasasi xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, hududiy profilaktika inspektori va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi faollari bilan suhbatlar uyushtirish;

ta‘lim muassasasi huzuridagi “Oila-mahalla-ta‘lim muassasasi” hamkorligi Jamoat Kengashi yig‘ilishlarida tarbiyasi og‘ir, muntazam dars qoldiruvchi o‘quvchilar ota-onalarining farzand tarbiyasidagi mas‘uliyatsizliklarining muhokama qilib borilishini tashkil etish;

ichki nazorat ro‘yxatida turgan har bir o‘quvchining xulqidagi ijobiy o‘zgarishlar va ular tomonidan erishilgan har bir yutuqning e‘tirof etilishi va rag‘batlantirib borilishini ta‘minlash.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan yakka tartibda shug‘ullanishni tashkil etishda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida faoliyat yuritayotgan sinf rahbarlarining asosiy vazifalari:

“Tarbiyaviy soat”larda o‘quvchilarda sog‘lom fikrlash, tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, darslarga jiddiy tayyorlanib kelish, bo‘sh vaqtlarida to‘garaklarga qatnashish va kitobxonlikni targ‘ib qilish;

ta‘lim muassasasi va undan tashqarida o‘quvchilar tomonidan taqiqlangan buyumlar (o‘tkir tig‘li jismlar, o‘yin kartasi, turli zararli kimyoviy moddalar va pirotexnik vositalar, maxsus gaz sachratuvchi moslamalar, qimmatbaho buyumlar, ma‘naviyatga va xulqqa salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi boshqa predmetlar) ni olib yurish mumkin emasligi haqida doimiy tushuntirish ishlarini olib borish;

o‘quvchilarning oilaviy sharoitini o‘rganish va ota-onasiga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish; o‘quvchining qiziqishlarini e‘tiborga olgan holda to‘garaklarga jalb qilish;

o‘quvchini ta‘lim muassasasi va sinf miqyosida o‘tkaziladigan turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlarga muntazam ravishda jalb qilish;

o‘quvchining bo‘sh o‘zlashtirayotgan fanlar bo‘yicha faoliyatini muntazam tahlil qilib borish, fan o‘qituvchisiga darslarda ushbu o‘quvchini faollashtirish yuzasidan kerakli tavsiyalar berish;

o‘quvchilarning darslarga to‘liq o‘quv qurollari bilan ishtirok etishi va davomatini, shuningdek odob-axloq qoidalariga rioya qilishini kunlik nazorat qilib borish;



o'quvchilar maktabga kelmay qolgan holatda zudlik bilan shu kunning o'zida (soat 10:00 gacha) ularning ota-onalari bilan telefon orqali bog'lanib, vaziyatga aydinlik kiritish, ota-onasi bilan bog'lanish imkonini bo'lmaganda, ta'lim muassasasi rahbariyatini ogohlantirish;

o'quvchining o'qishi va xulqida kuzatilayotgan har qanday o'zgarishlarni ularning ota-onalari va maktab rahbariyatiga ma'lum qilish;

o'quvchining xulqidagi va fanlarni o'zlashtirishidagi har qanday ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirish choralarini ko'rish.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim maktablari psixologlarining asosiy vazifalari:

sinf rahbarlari bilan birgalikda o'quvchilarning "ijtimoiy pasporti"ni (o'quvchi va uning ota-onasi, oilaviy sharoiti to'g'risida to'liq ma'lumotlar banki) o'quv yili boshida tuzish va uni tizimli ravishda (har chorakda) yangilab borish;

ta'lim muassasasining ichki nazorat ro'yxatiga olingan o'quvchilar uchun alohida yig'majild shakllantirgan holda ular bilan tizimli ravishda yakka tartibda psixologik suhbat (haftada kamida 1 marta) va so'rovnomalar (oyda kamida 1 marta) o'tkazish;

o'quvchining xulqini va tarbiyasini ijobiy tomonga o'zgartirish bo'yicha hamda ijtimoiy moslashtirish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida turli psixologik metodlar orqali ularning qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatini hisobga olgan holda sinf rahbari, yoshlar yetakchisi bilan hamkorlikda tegishli tadbirlarni amalga oshirish;

amalga oshirilayotgan profilaktik chora-tadbirlar natijasida huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilarning ruhiyatida kuzatilayotgan o'zgarishlar to'g'risida uning ota-onasini xabardor qilish va bu borada ular bilan hamkorlik qilish;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchining ota-onasiga farzand tarbiyasi bo'yicha pedagogik-psixologik yordamlar ko'rsatish.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim maktablari yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalari:

psixolog xulosasiga ko'ra huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchini to'garaklar va sport seksiyalariga jalb etish hamda doimiy ishtirokini nazoratga olish;

ta'lim muassasasi "Yoshlar ittifoqi" va "Kamalak" tashkilotlari sardorlarini ichki nazorat ro'yxatidagi o'quvchiga birlashtirish;



sinf rahbarlari bilan hamkorlikda tuman (shahar)dagi maktabdan tashqari muassasalar bilan tanishtirish choralari ni ko'rish;

o'quvchini ta'lim muassasasi va O'zbekiston yoshlar ittifoqining tuman (shahar) kengashi tomonidan tashkil etiladigan turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga muntazam ravishda jalb etib borish;

huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar tomonidan bajarilgan har qanday ijobiy ishlar va yutuqlarni turli tadbirlarda va "Ertalabki saflanish"larda e'tirof etib borilishini ta'minlash.

Huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanishni tashkil etishda umumiy o'rta ta'lim maktablari rahbarlari ta'lim muassasasining ichki nazorat ro'yxatiga olingan o'quvchilar bilan olib boriladigan profilaktik va tarbiyaviy ishlar, ularga birlashtirilgan mas'ul xodimlarning faoliyati, o'quvchilar bilan yakka tartibda shug'ullanish rejalarining sifatli va o'z vaqtida bajarilish holati, sinf rahbarlari, maktab psixologi va yoshlar yetakchisining faoliyati ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan muntazam ravishda kunlik nazorat qilib borishlari va muvofiqlashtirishlari zarur. Mas'ul xodimlar, sinf rahbarlari, psixolog, yoshlar yetakchisi va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan ta'lim muassasasining ichki nazorat ro'yxatiga olingan huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash holati har hafta yakunlari bo'yicha maktab rahbari tomonidan tahlil qilib boriladi. Mas'ul xodimlarning faoliyati va tarbiyasi og'ir o'quvchilar bilan tegishli ishlarning olib borilish holati, ushbu toifaga kiruvchi o'quvchilardagi ijobiy (salbiy) o'zgarishlar ta'lim muassasasi pedagogik kengashi yig'ilishlarida har oy yakunlari bo'yicha muntazam ravishda muhokama qilib boriladi. Bunda mas'ul xodimlarning hisobotlari ham eshutiladi.

O'quvchilar orasida huquqbuzarlik sodir etishga moyillikni oldini olishda "Oila-mahalla-ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun tadqiqot doirasida quyidagi ishlar amalga oshirildi: joylarda ota-onalar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari, pedagoglar ishtirokida oila, umumta'lim maktablari, professional ta'lim muassasalari va mahalla hamkorligiga erishish; jamoat kengashlarini tashkil etish, ular ishtirokida ta'lim sifatini muntazam ravishda o'rganish va uning belgilangan standartlarga mosligi borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish; ta'lim muassasalariga bevosita yaqin hududda alkogol va tamaki mahsulotlari sotilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida jamoatchilik nazoratini o'rnatish kabi tadbirlar amalga oshirilishi o'zining ijobiy samarasini beradi.



Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashni jonlantirishda sinf soatlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish, ular huquqbuzarligining oldini olish masalalariga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik va psixologik korreksiya metodlariga murojaat etishni talab etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining shaxs va sub'ekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o'sishi, jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq normalariga mosligi ularning kelajakda jamiyatning teng huquqli fuqarosi sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi. Chunki, tezlik va o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda globallashuv jarayonlarining ijobiy tomonlari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlar ham hayotimizga kirib kelmoqda. Bunday xatarlardan yoshlarni asrash, ma'naviy bo'shliqqa yo'l qo'ymaslik, jahon maydonida yuz berayotgan keskin aql-zakovat va iste'dod musobaqasida bellashuvga qodir bo'ladigan yoshlarni tarbiyalash hayot taqozosidir.

#### Adabiyotlar:

1. Zaripov F.M. O'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish ijtimoiy zarurati. // "Xalq ta'limi" jurnali. Toshkent 2018 yil №3 – B. 84-88.
2. Asadov Yu.M., Musurmanov R. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari O'quv-metodik qo'llanma // T.: «Sano standart» 2011.
3. Rashidov H., Musurmonov R., Alimxodjaeva S. O'qituvchilarni dars intizomiga salbiy munosabatdagi o'smirlar bilan ishlashga tayyorlash // Maktab va hayot. – Toshkent, 2014. - № 6. - 8-13 betlar.
4. Umarov B. Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar / Uslubiy qo'llanma/. – Toshkent, 2012. –76 b.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada sinf soatlarida huquqbuzarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashning o'ziga xos yo'llari, imkoniyatlari, bu jarayonda maktab psixologi, yoshlar yetakchisi hamda direktor o'rinbosari tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar haqida fikr yuritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматриваются конкретные способы и возможности работы с учащимися, имеющими склонность к совершению преступлений во время уроков, задачи, выполняемые школьным психологом, молодежным лидером и заместителем директора в этом процессе.

#### SUMMARY

This article discusses the specific ways and possibilities of working with students who have a tendency to commit crimes during class hours, the tasks performed by the school psychologist, youth leader and deputy director in this process.